

JOY NOMLARI TOPONIMIYASI HAQIDA MULOHAZALAR

Xoldorova G. M.

Jizzax Davlat pedagogika universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya va itistisodiy bilim asoslari kafedrasida katta o'qituvchisi, g.f.f.d., PhD

Xoldorova X.P.

Jizzax viloyati Sh.Rashidov tumani 15-maktab o'qituvchisi

Qo'chqorova O.U

Jizzax viloyati G'allaorol tumani 40-maktab o'qituvchisi

Nomlar xalq uchun g'urur, iftixor, faxr, vatanparvarlik belgisi ekan, har bir inson o'ziga qadrdon bo'lgan nomni bag'rida yashiringan tarixni, ma'naviyatni, ma'rifatni bilishni istaydi. SHu sababdan, xalq tomonidan asrlar davomida yaratilgan va keyingi avlodlarga ma'naviy-ma'rifiy meros qilib qoldirgan nomlarni o'rganish, muhofaza qilish, asrab-avaylash, to'g'ri talqin qilish nihoyat nozik va dolzarb masala hisoblanadi. Jizzax viloyati iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror o'sishida mintaqaning geografik o'rni, mehnat resurslari, iqtisodiy salohiyati, ishlab chiqarish quvvatlari va mavjud tabiiy boyliklari alohida ahamiyatga ega. Jizzax vohasi o'z tabiatining rang-barangligi bilan har qanday odamni o'ziga maftun etadi. Eng muhimi, uning o'ziga xos qiyofasini, mavqei-e'tiborini mana shu saxovatli zaminda yashaydigan zahmatkash insonlar, ularning aql-zakovati, fidoyiligi, el-yurt ishiga sadoqati belgilaydi.

Hech kimga sir emas, mintaqadagi mavjud qulay tabiiy sharoit, yetarli xomashyo, malakali ish kuchi, transport va infratuzilma ob'ektlari holati, zamonaviy texnologiya va qulay investitsion muhit, hududning ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishini ta'minlashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. SHu nuqtai-nazardan qaraganda, ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan G'allaorol o'z tabiatining rang-barangligi bilan har qanday odamni o'ziga mafun etadi.

Tarixiy manbalarda tuman nomi Yangiqo'rg'on deb qayd qilingan. Masalan, shoir Gulxaniy o'zining «Zarbulmasal» asarida ham joy nomini Yangiqo'rg'on deb tilga olgan. Qo'rg'on - yer sathidan ko'tarilgan joyda tevaragi devor bilan o'rab olingan, darvozali qal'a, istehkom. Taniqli nomshunos olim T.Nafasovning yozishicha, qo'rg'on qurish xalqimizning o'troq hayotga ko'chish ma'naviyati, qishloqsozlik va shaharsozlik qadriyatlarini bilan bog'liq. Dastlab atrofi devor bilan o'ralgan aylana, to'rtburchak tarzidagi imorat qo'rg'on sanalgan, so'ngra devorini baland, qalin, mahobatli, bir darvozali qilib qurishgan.

Barchasi mudofaa maqsadlarini ko'zda tutishgan. Ilk o'rta asrlardagi qo'rg'onlarning tevaragi suv to'lg'azilgan xandaq bilan o'ralib, balandlik yoki supa ustida qurilgan. Dehqonchilik madaniyatining taraqqiy qilishi natijasida hovli, uy, turarjoy maqsadida qurilgan binoni ham qo'rg'on deyishgan. Yangiqo'rg'on so'zi uni qachon paydo bo'lganligidan darak beradi. Yonidagi qo'rg'onga nisbatan undan keyingi davrda qurilgan qo'rg'on - Yangiqo'rg'on.

Yuqorida qayd qilingandek, hozirda tuman nomi bo'lgan G'allaorol so'zining geografik nom sifatida paydo bo'lishi uzoq tarixga ega emas. 1930 yilning kuzida o'sha davrda respublika rahbarlaridan biri bo'lgan Yo'ldosh Oxunboboev tumanga tashrif buyuradi. Y.Oxunboboev g'alla hosiliga bag'ishlangan yig'ilishda qatnashib, tumandagi lalmikor yerlardan samarali foydalanish, ularni haqiqiy g'alla oroliga aylantirish haqida nutq so'zlaydi. Men tumandagi mavjud lalmi yerlari bilan tanishdim, bu yerlar rizq - ro'zimiz bo'lgan g'allaga kon bo'ladigan joy ekan. Shunday ekan tumaningiz nomi ham G'allaorol bo'lsin degan fikrini bayon qilgan. Shu voqeadan so'ng ko'p o'tmasdan 1931 yili tuman nomi G'allaorol deb o'zgartirilgan.

Tuman toponimiyasi lisoniy jihatdan ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, tumanda o'zbekcha geografik nomlar ko'pchilikni tashkil qilsa ham, so'g'dcha substrat toponimlar bilan birga fors-tojik, arab, mo'g'ul tillaridan o'zlashgan so'zlar asosida paydo bo'lgan joy nomlari ham uchraydi. Uzoq tarixiy taraqqiyot davomida tumanning tekislik va tog'li hududlarda yashagan o'troq aholi ko'chmanchi va yarim o'troq chorvador qabilalar bilan yonma-yon va aralash yashagan. Tub aholisi asosan o'zbeklardan iborat bo'lgan tumanda, tojik, qozoq va boshqa millat vakillari ham bu diyorda qadimdan maskan topgan.

Tuman hududi qadimgi madaniyat o'chog'i bo'lgani bois tarixiy nomlar ko'proq uchraydi. Tuman toponimiyasi tarkibida qabila, urug', to'p kabi etnik birlik asosida nomlangan aholi maskanlar ko'p. Masalan, Qangli, Obiz, Mingqishloq, Sug'umboy, SHerqang'li, CHuvilloq, Xitoyyuzi, Nayman, Saroy, Qoraqo'yli, CHO'michli, Qarapchi va hokazo. Etnik guruh nomi asosida paydo bo'lgan etnooykonimlar tuman oykonimiyasining 30-35 foizini tashkil etadi. Bu holat viloyatning barcha tog'li tumanlari toponimiyasiga ham xos. Ma'lumki, har qanday etnonimning o'z ma'nosi bor, etnonimlar ko'pincha qadimiy, ko'hna so'zlardan tashkil topganligi bois, ularni tilning hozirgi holati bilan izohlashni iloji yo'q. SHuni ham qayd qilish kerakki, etnooykonimlar tuman aholisining tarixiy shakllanishi, taraqqiyoti, xalqlarning qadimiy munosabati, integratsiya va migratsiyasini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Har bir geografik nomning o'ziga xos kelib chiqishi tarixi bor. Masalan, tumanda Mug'on degan joy nomi bor. Miq, Mug'tepa, Mug' tog'i, Mug' qal'asi kabi toponimlar ham mug' so'zi bilan bog'liq. Otashparast - zardo'shtiylarni musulmonlar mug'lar deyishgan. So'g'd tiliga xos bo'lgan mug' so'zini mutaxassislar ko'pincha otashparast, otashparastlarning ulug'i deb talqin qilishgan.

Nom tarkibidagi -on toponim yasovchi affiks hisoblanib, kishilarning qandaydir ijtimoiy guruhga, jumladan, muayyan diniy e'tiqodga mansub ekanligini bildiradi. Mug'on - mug'lar, otashparastlar manzili, makoni, ular e'tiqod qiladigan joy ma'nolarini ifodalaydi. Tuman toponimiyasi tarkibida so'g'diy toponimlarni paydo bo'lishiga G'allaorolni Xarakana nomi bilan ilk o'rta asrlarda Ustrushona davlati tarkibida bo'lganligi sabab bo'lgan deyishadi.

Ayrim hollarda joy nomining xalqona etimologiyasi haqiqatga juda o'xshaydi. CHunonchi, tumanda Moltop nomli aholi punkti bor. Ma'lumki, o'tgan asrning o'rtalarida

(50-chi yillari) joylarda tashkil etilayotgan xo'jaliklarga sobiq sho'rolarning partiya va davlat rahbarlari (Stalin, Kalinin, Mikoyan, Malenkov, Molotov) nomini berish ancha keng tus olgan. Ana shu davrda hozirgi Moltop qishlog'i hududida Molotov (SSSR Ministrlar Sovetining shu davrdagi raisi) nomli kolxoz tashkil etilgan. Keyinchalik kolxozlar qo'shilib ketishiga qaramasdan, mahalliy xalq tilida Molotov so'zi Moltop shaklida o'zgargan degan taxmin mavjud. Aslida esa bu haqiqatga to'g'ri kelmaydi, chunki X.Doniyorov qishloq nomini etnonim ekanligini aniqlab, «qirq nomli o'zbek urug'ining bir tarmog'i Moltop deb atalgan» degan xulosani bayon qilgan.

Hudud toponimiyasida tabiiy geografik omillarning ham ta'siri ko'rinadi. Masalan, Gumsoy, Jarbuloq, Ko'tal, Toshkamar, Qo'ytosh va boshqa geografik nomlar, bevosita rel'ef shakllari bilan bog'liq, chunki aholi manzilgohlarining tevarak - atrofdan farq qiladigan geomorfologik xususiyati nom berishda muhim ahamiyat kasb etgan. Vaqt o'tishi bilan ob'ektning rel'efi o'zgarishi mumkin, biroq o'sha yer yuza shaklini ifoda qilgan nom saqlanib qolaveradi.

Tumanda jar geografik termini ishtirokida paydo bo'lgan bir necha oykonim bor. Jarboshi, Jarbuloq, Jarariq kabi nomlar shu yaqin atrofda rel'efning salbiy shakli bo'lgan jar borligidan darak beradi. Tuman hududida gidrooykonimlar ham ko'p. Ta'kidlash lozimki, kishilar har doim hayoti uchun zarur bo'lgan suv manbaiga yaqinroq joydan makon tanlagan va manzilini ham shu suv manbai nomi (Korizquduq, Marjonbuloq, Hovuzbuloq, Ko'charbuloq) bilan atagan.

Tuman hududida nomi g'alati tuyuladigan Tozaurug' qishlog'i bor. Bir qarashda etnooykonimdek tuyulsa ham, aslida etnonimga hech qanday aloqasi yo'q. Oykonimni paydo bo'lishida o'tgan asrning o'ttizinchi yillari oxirida g'alla urug'chiligi va selektsiyasini yo'lga qo'yish va yaxshilash maqsadida tuman hududida tashkil etilgan respublika g'allachilik ilmiy-tatqiqot instituti sabab bo'lgan. Ilmiy-tatqiqot institutining asosiy vazifasi respublikaning lalmikor (bahorikor) yerlariga serhosil, qurg'oqchilikka chidamli sara va toza don urug'i yetkazib berishdan iborat bo'lgan. Ilmiy-tatqiqot instituti filiali hozirgi kunda ham faoliyat ko'rsatmoqda.

G'allaorol tumani toponimiyasiga oid ma'lumotlar Jizzax viloyati toponimiyasi kitobidan olindi. Kitob muallifi tuman hududidagi aholi punktlari nomlarining talqinidan foydalanishga rozilik berdi. SHu bilan birga, ijtimoiy ehtiyoj tufayli geografik ob'ektlarni nomlashga asos bo'lgan, lisoniy, tarixiy va geografik omillar, mavjud ilmiy manbalar asosida tahlil qilindi. Nomni yaratilgan davrdagi ma'nosi va unda yuz bergan o'zgarishlarni sabablari bayon qilindi. Mintaqadagi har qanday joy nomi muayyan bir tarixiy davr mahsuli va mahalliy xalq ijodining bebaho namunasi ekanligi ta'kidlandi. Ularda mahalliy xalqning ko'p asrlik ma'naviyati, madaniyati, tafakkuri, ishlab chiqarishi, xo'jalik tarzi, tabiatga munosabati o'z aksini topgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Asanov G., Nabixonov M., Safarov I. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. - T.; 1994.
2. Vahobov H., Tillaboeva M. Iqtisodiy geografiya asoslari. -T.; 2001.
3. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. -T.; O'qituvchi. 1993.
4. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 1-12 jild, -T.: 2000 -2007.
5. Alibekov L.A., Nishonov S.A. Природные условия и ресурсы Джизакской области. -Т.; Uzbekistan 1978.
6. Soliev A.S. tahriri ostida. Qishloq joylar demografiyasi. -T., 2005.
7. Xoldorova, G. (2021). МИРЗАЧЎЛДА АТРОФ-МУҲИТНИ МОНИТОРИНГ ҚИЛИШ МАСАЛАЛАРИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*
8. Gapparov, A., & Kholdorova, K. (2020). Population Systems In The Reclaimed Lands Of The Republic Of Uzbekistan. *Архив Научных Публикаций JSPI.*
9. Abdunazarov, U., & Sabitova, N. (2020). Morphological features of buried Soils of loess formations of the pyrtashkent region of Uzbekistan. *Архив Научных Публикаций JSPI.*
10. Hakimov Q.M. Jizzax viloyati toponimlari. -Jizzax. "Sangzor". 2014.
11. Hakimov Q.M., Odilova O. Jizzax viloyati geografiyasi. -T; "Fan va texnologiyalar", 2015.